

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUV QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN  
YURIDIK JAVOBGARLIK

**Ahmadjonova Hamidaxon Shavkatjon qizi**

**Alijonova Durдона Dilmurodjon qizi**

**O'rmonova Muxlisaxon Dilshodjon qizi**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari*

**Anontatsiya:** *ushbu maqolada suvdan foydalanishda jismoniy va yuridik shaxslarning yuridik javobgarligi hamda ularga beriladigan jazo choralari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jazo, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, yuridik javobgarlik, majburlov choralari, huquqbuzarlik va qonun hujjatlari.*

Suv – hayot manbai. Uni asrab-avaylash har birimizning asosiy burchlarimizdan biridir. Shuningdek suv tabiatning eng noyob, nodir hamda bebaho boyliklaridan biri hisoblanadi. U butun tirik jonzot – inson, o'simlik va hayvonot dunyosi uchun yashash manbaidir. Suv tabiiy atrof-muhit muvozanatini saqlash, uni mo'tadil holatda ushlab turuvchi asosiy omil vazifasini o'taydi. Shu bilan birga, suv xalq xo'jaligi, sanoat, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Yer yuzi aholisining uchdan bir qismi suv resurslariga nisbatan o'ta og'ir muhtojlikni boshidan kechirmoqda. Sayyoramizda ichimlik suving kamayib borayotgani, daryolarning yarmiga yaqini ifloslanganligi, ularning resurslari tugab borayotganligi hamda Yer yuzidagi botqoqliklar maydoni va ichki suv resurslari qisqarayotganligi achinarli hol albatta. Shunga o'xshash holatlarni bartaraf etish maqsadida Respublikamizda Suv huquqi bo'yicha alohida qonunchilik ishlab chiqilgan bo'lib, unga rioya qilmagan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Suv qonunchiligi ya'ni suvlardan qonunga xilof ravishda foydalanganlik uchun jazo choralari belgilovchi huquq normalari davlat organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi suv to'g'risidagi qonunlariga og'ishmay rioya qilishlari, suvdan foydalanuvchilarning buzilgan huquqlarini tiklash va umuman, suv munosabatlari sohasidagi qonunlarga izchil rioya qilinishini ta'minlashda alohida ahamiyatga egadir.<sup>8</sup>

Qonunchiligimizda suv qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy, intizomiy, faqarolik, jinoiy jazo choralari qo'llaniladi. Suv qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka tortishning asosi bo'lib, suv huquqbuzarligining sodir etilganligi va shu turdagi huquqbuzarliklar uchun qonunda javobgarlikning mavjud ekanligi hisoblanadi. Suv qonunchiligida javobgarlikka tortish uchun asos hisoblangan quyidagi huquqbuzarlik turlari sanab ko'rsatilgan:

<sup>8</sup> M.B. Usmanov "Suv huquqi" darslik Toshkent TDYI 2004

• suvdan foydalanish huquqini boshqaga berish hamda davlatning suvga egalik huquqini oshkora yoki yashirin shaklda buzish;

• suv obyektlarini o'zboshimchalik bilan egallab olish yoki suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanish;

• suvdan foydalanish limitlarini buzish daryolarni bulg'ash, va iflos qilish;

• suvni bulg'ash va ifloslashning yoki suv yetkazadigan zararli ta'sirning oldini oladigan inshootlari va qurilmalari bo'lmagan korxonalarni, kommunal obyektlarni va boshqa obyektlarni ishga tushirish va boshqalar.<sup>9</sup>

Ushbu huquqbuzarliklarni sodir etish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, suv qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy, intizomiy, faqarolik, jinoiy jazo choralari qo'llaniladi.

Suvdan foydalanish qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik masalasiga to'xtaladigan bo'lsam, javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ko'deksida taqiqlangan suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzish, suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, suvdan foydalanish qoidalarini buzish kabi nojo'ya harakatlar sodir etilganida vujudga keladi. O'zbekiston Respublikasi «Ma'muriy javobgarlik to'g'risida»gi Kodeksining 72-moddasida suv zaxiralarini muhofaza qilish qoidalarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan bo'lib, suvlarni iflos qilish, suv to'plag'ich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini buzish fuqarolarga eng kam oylik ish haqining uchdan bir qismining bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa eng kam oylik ish haqining bir baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo'ladi.

Agarda suvdan foydalanishga oid huquqbuzarlikning ijtimoiy xavfi ma'muriy nojo'ya harakat darajasida bo'lmasa, bunday huquqbuzarlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi. Intizomiy javobgarlik huquqiy ta'sir chorasi sifatida o'zlarining xizmat faoliyatlari, suv xo'jaligi yoki jamoat tashkilotlariga a'zo bo'lgan, intizomiy nojo'ya harakat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Bu javobgarlik suvdan foydalanish qoidalarini buzishga qaratilgan quyidagi nojo'ya xatti-harakatlar: suvdan foydalanishga oid mehnat majburiyatlari bajarilmaganda, shuningdek, texnika qoidalarini buzishga olib kelgan sifatsiz ish qilinganida intizomiy javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

Intizomiy jazo choralari jamoa, davlat yoki boshqa kooperativ suv tashkilotlarining ustavi yoki nizomlarida belgilab qo'yiladi. Intizomiy jazo choralari sifatida: hayfsan, o'rtacha oylik ish haqining 20 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda jarima, mehnat shartnomasini bekor qilish va boshqalar qo'llanilishi mumkin.

Suv resurslaridan foydalanish tartibini buzganlik uchun qo'llaniladigan asosiy javobgarlik turlaridan yana biri fuqarolik huquqiy javobgarlik hisoblanadi. U suv obyektlariga mulkiy zarar yetkazish oqibatida kelib chiqadi. Bu javobgarlik yuridik

<sup>9</sup> X. Valiyev, Sh. Murodov, B. Xolboyev "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" Toshkent 2010

javobgarlikning mustaqil turi hisoblanib suvdan foydalanish munosabatlarda suvning egasi, mulkdori, foydalanuvchisiga nisbatan mulkiy zarar yetkazilganida, ya'ni suvni ifloslantirganlik, egallab olganlik kabi holatlarda qo'llaniladi.

Suv qonunchiligini buzganlik uchun belgilangan fuqarolik-huquqiy javobgarlik huquqbuzar zimmasiga jabrlangan tomon ko'rgan zararni natura shaklida (real qoplash) yoki pul shaklida qoplash majburiyatini yuklatilishidan iboratdir. Bunday zarar suvni muhofaza qilish bo'yicha huquqiy talablarning buzilishi natijasida yetkaziladi.

Suvdan foydalanish huquqini buzganlik uchun huquqiy javobgarlik jinoyat qonuni normalarida belgilangan ijtimoiy xavfli xatti-harakat yoki harakatsizlikni sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Ma'lumki, jinoiy huquqbuzarlik jamiyat uchun zarari va ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi bilan boshqa huquqbuzarliklardan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida: atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (196-modda) suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (203-modda) uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Jinoyat Ko'deksining 196-moddasi 1-qismida «Suvni ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqaqacha og'ir oqibatlariga sabab bo'lsa, eng kam oylik ish haqining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorida jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi<sup>10</sup>», deb belgilangan.

So'zim yakunida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, yuqorida keltirilganlarga asoslangan holda, suv resurslaridan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilish bu yuridik hamda jismoniy shaxslarning asosiy burchlaridan biridir. Shu sababli ulardan foydalanishda ehtiyotkarona munosabatda bo'lish shart va majburdir. Zero qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. M.B. Usmanov "Suv huquqi" darslik Toshkent TDYI 2004
2. X. Valiyev, Sh. Murodov, B. Xolboyev "Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish" Toshkent 2010
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 03.03.2023

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 03.03.2023